

## “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA QO‘LLANILGAN O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI

**Matjanov Sherhali Ataxanovich**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek tili  
kafedrasi assistent o‘qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada “Oltin zanglamas” asari matnida yozuvchi Shuhratning o‘z fikrini qisqa-lo‘nda, tushunarli va ta’sirli qilib bayon qilishda birgina maqol orqali butun bir voqeani izohlashga erishganiga urg‘u berilgan*

*Kalit so‘zlar: Maqol, matall, aforizm, yozuvchi, milliy meros, avlod, milliy qadriyat, badiiy til.*

Tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari uning qimmatini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo‘yoqdorligi maqollarda ham namoyon bo‘ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, so‘z boyligini maqollar orqali ham namoyon qiladi. Mamlakatimiz istiqloлга erishgach, o‘zbek xalqining madaniy-ma’naviy hayotida ulkan ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keldi. Istiqloл tufayli milliy qadriyatlar tiklandi, xalqimizning ma’naviyati, madaniyati, axloqiy e’tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to‘ldi.

Maqollar xalqimizning milliy, madaniy–ma’naviy avloddan–avlodga o‘tib kelayotgan merosi hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollarini o‘rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Maqol va matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘stiradi, ularni to‘g‘riso‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo‘lishiga o‘rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqning so‘z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g‘oyat ta’sirli qiladi. Maqolga adabiy til nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan.

To‘ra Mirzayev maqollarning o‘rganilishi haqida “Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz”, deb fikr bildiradi.

Xususan, o‘zbek xalq durdonalarini, o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni to‘plash va o‘rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o‘z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi.

XI asrning buyuk olimi M.Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu haqida M.Koshg‘ariyning o‘zi shunday yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, sahlar, maqollar, qo‘shiq, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim”<sup>1</sup>. Demak, o‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan.

Og‘zaki ijodning eng qadimgi va eng qisqa namunasi bo‘lgan maqollar badiiy adabiyotning nasriy asarlarida ham keng qo‘llanilib kelingan. Maqollardan foydalanish orqali yozuvchi o‘z fikrini qisqa-lo‘nda, tushunarli va ta‘sirli qilib bayon qilishga va birgina maqol orqali butun bir voqeani izohlashga erishadi. Maqollar xalqning ma‘naviy mulki bo‘lib, xalq badiiy asarlarida turli maqsadlarda foydalaniladi. Maqollar achchiq kinoya maqsadida, yoki yengil kulgu qilish uchun badiiy matnda keltiriladi. O‘zbek adabiyotida shunday yozuvchilardan biri Shuhrat (Asl ism familiyasi G‘ulom Aminovich Alimov) “Oltin zanglamas” asarida xalq maqollarini unumli qo‘llab, ularning purhikmat va purma‘no fazilatidan foydalanib, o‘quvchi e‘tiborini jalb qilishga erishadi. Shuhratning “Oltin zanglamas” asari 1967-yil yozilgan bo‘lib, romanda ma‘rifat sohibi – o‘qituvchi degan sharafli kasb ulug‘lanib, dunyoda yaxshi insonlar ham, yomon insonlar ham bor ekanligini hamda odamiylik, insoniy fazilatlar, insonga bo‘lgan hasad, havas, sof muhabbat va buyuk ona mehri yoritilgan<sup>2</sup>. Yozuvchi asarda bosh qahramonlar Sodiq bilan Jannatning turmush qurgandan keyingi hayotini tasvirlashda hamda o‘zbek xalqining ikkinchi jahon urushida fashistlarga qarshi mardonavor kurashi, matonatli oila taqdiri va insonlar umrining murakkabligi haqidagi badiiy, hayotiy-falsafiy qarashlar haqida fikrlarini yetkazishda xalq maqollaridan o‘rinli foydalanadi.

Misollarga murojaat qilaylik:

“Sabr so‘nggi – sariq oltin”, “Qo‘shning tinch-sen tinch”, “Itidan bo‘lgan qurbonlikka yaramaydi”, “Xotinni boshidan – bolani yoshidan tut”, “Ko‘cha xandon – uy zindon”, “Yetim qo‘zi boqsang og‘zi-burning yog‘ etar, etim bola asrasang, og‘zi burning qon etar”, “Qor yog‘di, iz bosildi”, “Bevani tuyani ustida it qopadi”, “Oyog‘i katta sig‘anini, oyog‘i kichik sevganini kiyadi”, “O‘qigan-guliston, o‘qimagan go‘riston”, “Er xo‘rligi-yer xo‘rligidan yomon!”, “Bir ochga, bir kasalga

<sup>1</sup> Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” 1Tom. -Toshkent: 1960-yil, 44-45-bet

<sup>2</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/shuhratning-oltin-zanglamas-asari-badiiy-falsafiy-xususiyatlari>

(yalang‘ochga) tegma”, “Erkak avra – xotin astar”, “Yolg‘onning taxtida shoh bo‘lgandan, rostgo‘yning chorbog‘iga giyoh bo‘l”, “Sharmandaga shahar keng”, “Bir kun urush bo‘lgan yerdan, Qirq kun baraka ko‘tariladi”, “Qiz xotini-uy xotini, juvon xotin-yo‘l xotini”, “Vaqt – sevgi doyasi”, “Kal taranguncha to‘y tarqaladi”, “Beli bog‘liqning dili bog‘liq”, “Tekinning minnati ko‘p-mehnatning ziynati”, “Do‘st kuyib gapirsa, dushman oshirib gapiradi”, “(Mol olasi tishida) odam olasi ichida”, “O‘limni o‘ylagan imorat solmaydi”, “Burgaga achchiq qilib ko‘rpa (ga o‘t qo‘yma) kuydirib o‘tirma”, “El boshiga tushgani-er boshiga tushgani”, “Erka qilib boqilgan tekis yo‘lda qoqiladi”, “Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajal yetgan o‘ladi”, “Asl aynimas-oltin zanglamas”.

Yuqoridagi keltirilgan maqollar asarning bosh g‘oyasi va qahramonlarning fazilatlari, mardligi, matonati, vatanparvarligi, sabrbardoshini ko‘rsatishda yozuvchi tomonidan mahorat bilan foydalanilgan. Yozuvchi asarda bu xalq maqollarning ba‘zilarini sintaktik jihatdan o‘zgartirilgan holda qo‘llaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Shuhratning “Oltin zanglamas” asarida bir necha inson taqdiri va avvalo, o‘qituvchi degan sharaflil va mashaqatli bo‘lgan kasb egasining o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbati, sadoqat bilan ishlashi va bolalarga bo‘lgan mehr-muhabbati yaqqol ko‘rsatishda yozuvchi jami 30 dan ortiq o‘zbek xalq maqollarini keltirib o‘tgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T. O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
2. Shuhrat. (2018). Oltin zanglamas. – T.: Yangi asr avlodi.
3. Hoshimov, O‘. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa. –T.: O‘qituvchi
4. Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.
5. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” 1Tom. -Toshkent: 1960-yil
6. Hakimov.B“Shuhratning-oltin-zanglamas-asari-badiiy-falsafiy-ususiyatlari”
7. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commonity and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
8. Sherali, M. (2023). Qoraqalpoq xalq maqollarining ba‘zi aksiologik xususiyatlari. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(1), 73-76.
9. Matjanov, Ш., & Абдула, И. (2022). О ‘zbek tilida qo ‘llaniladigan ayrim maqollarning genetik, leksik-semantik xususiyatlari. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 82-83.
10. Matjanov, Ш., & Курбанбаев, О. (2022). So ‘z ichida so ‘z... Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 100-101.
11. Matjanov, S. (2022). LIRIKADA TABIAT TASVIRI. ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 19-20.